



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 338 sahifa,
25-iyul, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Imkoniyati cheklangan talabalarda jismoniy sifatlarni sport mashg'ulotlari yordamida rivojlantirishning afzalliklari	8
Davronov Rustam Iloxovich	
Использование фонетических игр и современных технологий в обучении русскому языку в общеобразовательных школах Узбекистана	15
Абумалик Муталлиевич Дедаханов	
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish muammo va yechimlar	20
Qudratov O'ktam G'ofurovich	
The Role of Motivation in Learning English	25
Kamoldinova Mushtariybonu Azizbek qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim muhitini boshqarishning ijtimoiy-pedagogik asoslari	30
Axrarova Gulrux Gulamkadirovna	
Bo'lajak logopedlarda metakognitiv-dagnostik kompetentlikni rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi	37
Suvankulova Shaxnoza Karimkulovna	
Ingliz tili darslarida individual va pragmatik yondashuvni amalga oshirish texnologiyalari	43
Yuldasheva Dilnoza Bobojonovna	
Talabalarining texnologik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishning tarkibiy komponentlari	48
Kushbakova Barno Batirkulovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni joriy etishda ijtimoiy hamkorlik va jamoatchilik fikrini shakllantirish	54
Arslanova Madinaxon Mansurovna	
O'quvchi-yoshlarga axloqiy ta'lim-tarbiya berishda qoraqalpoq dostonlarining ahamiyati	59
Esemuratova Turganbike Aytmuratovna	
Talaba markazli yondashuv asosida ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi	63
Narzullayeva Firuza Olimovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5-6 yoshdagi bolalarni kasbga yo'naltirish bo'yicha metodik xizmatni takomillashtirish	67
Rizayeva Munisxon Maxkamovna	
Generativ sun'iy intellekt vositalarining ta'lim jarayonidagi pedagogik imkoniyatlari	71
Shodiyev Azizbek Olim o'g'li	
Shaxs kamolotida psixologik salomatlikning ahamiyati va asosiy ko'rsatkichlari	76
Xolova Yulduz Erkinovna	
Zamonaviy ta'lim paradigmasida fizika fanini o'qitish: virtual va to'ldirilgan borliq hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining integrativ metodikasi	83
Zuhriddinov Farrux Faxriddin o'g'li	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	87
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual faolligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi individual-psixologik omillar	90
Djurakulova Munira Suyunovna	
Ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlarni takomillashtirish modeli hamda ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri	97
Narzullayeva Firuza Olimovna	
Народное творчество как великое сокровище интеллектуального воспитания	102
Матмуратова Гулистан Камалатдиновна	
Raqamli intellekt: o'quvchilarda mediasavodxonlik kompetensiyasini rivojlantirish – davr talabi	108
Nishonova Muattarxon Alisherovna, Toirova Nafisa Muzaffar qizi	



Umumta'lim fanlaridan dars samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslari.....	111
Toshmamatova Munisa Toshmamatovna	
Xorazm viloyatida ekoturizmni rivojlantirish istiqbollari (tumanlar kesimida).....	115
Xo'jyozova Dildora Shonazar qizi, Dusanova Sharofat Baltaboyevna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ yondashuv asosida innovatsion tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	121
Kadirova Dildora Najadbekovna	
The Integration of Artificial Intelligence in English Language Teaching: Opportunities and Challenges	125
Moxinur Yusupova	
Pragmatik-tizimli portfolio (PTP) texnologiyasi: talabalar reflektiv tafakkurini faoliyat dalillari asosida rivojlantirish.....	131
Abdullayeva Ziroatxon Qurbonovna	
Sog'lig'ida cheklovlari mavjud bolalar jismoniy va psixologik holatini takomillashtirishda yengil atletika mashg'ulotlarining ahamiyati	136
Hikmatova Nigoraxon Hasanboy qizi	
Art badiiy ta'limning rivojida klaster yondashuvi	140
A. S. Umarov	
Simulyatsion o'yin muhitida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy kompetentligini shakllantirish imkoniyatlari.....	143
Turg'unova Mohinaxon Akmaljon qizi	
O'smirlarda deviant xulq-atvor shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (empirik tadqiqot).....	150
Toshpolatova Robiya Akmal qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy mafkurani shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	154
Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Esanova Mehrgul Qurbanazarovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi dizartriyaning yengil shakliga ega 6-7 yoshli bolalardagi nutq kamchiliklarini o'yin texnologiyalari asosida korreksiyalashning samaradorligi.....	159
Baxadirova Zulfizar Azimbayevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ va ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarni baholashning diagnostik vositalarini tanlash va qo'llash metodikasi.....	163
Abdullayeva Munojot Muxtorovna	
Talabalarni o'quvchilarning tibbiy tashxisiga mos pedagogik yondashuvlardan foydalanishga o'rgatish usullari.....	169
Yuldashova Iroda Dilshodovna	
Uzoq muddat davolanishga muhtoj bolalar uchun ta'lim muassasalarining tashkil etilishi.....	174
Yusupjanova Shaxnoz Mirzatillayevna	
O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim tizimida raqamli STEAM muhitini joriy etish: o'qituvchilar tayyorgarligi va infratuzilma cheklovlari tahlili.....	178
Abdullayev Doston Sheraliyevich	
Bo'lajak maxsus pedagoglarning faol fuqarolik kompetensiyasining tarkibiy-mezonli modeli va rivojlanganlik darajalari	183
Sultonov Muxammadali Fayzulla o'g'li	
Совершенствование механизмов интеграции стратегического и функционального менеджмента на основе анализа деятельности государственных и международных филиалов вузов	189
A. M. Маргунов	
Решение педагогических проблем, возникающих при обучении письму леворуких учащихся начальных классов	194
Эгамбердиева Юлдуз	
Biologiya ta'limida generativ sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va metodik asoslari	198
Parmonova Marjona O'ktam qizi, Baybayeva Muxayyo Xudoyberganovna	

Bolalarda emotsional intellektni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari	204
<i>Sherdanova Farangiz Raxmat qizi</i>	
Zamonaviy televideniya suxandon nutqining tabiiyligi va auditoriya bilan ishonchli muloqot	208
<i>Maxanbetova Dilnoza</i>	
10-sinf kimyo darslarida "Spirtlar" bo'limini o'qitishda o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish metodikasi.....	211
<i>Nazarova Yulduz Atamuratovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishda ijodiy o'yinlardan foydalanish	215
<i>Yuldasheva Shoxida Botirovna, Kurbanbayeva Moldir Abatbay qiz</i>	
Milliy taraqqiyot g'oyalari jadid ayollarining o'rni.....	220
<i>Ergashova Mehriniso Husniddin qizi</i>	
Mahalla – oila – ta'lim muassasasi hamkorligi.....	223
<i>Muxtarov Utkirjon Mutalibjanovich, Abdusamatov Ozodbek</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida "Mikrobiologiya" modulini raqamli texnologiyalar asosida o'qitishning didaktik imkoniyatlari	227
<i>Reymova Erkinay Atabayevna</i>	
Raqamli ta'lim transformatsiyasi sharoitida professor-o'qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishning pedagogik omillari.....	232
<i>Abdusamiyev Dilmurod Abdug'ani o'g'li</i>	
Translanguaging as a Pedagogical Resource in Uzbek EFL Classrooms: Insights from a Classroom Observation	238
<i>Aziza Sobirova</i>	
Katta maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy tasavvurini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari.....	243
<i>Otayeva Salamat Sabirovna</i>	
System-Structure Research of Artificial Intelligence Terms	250
<i>Odilova Fotima</i>	
Oliy ta'lim tashkilotlarida qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim metodlarining mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari.....	259
<i>Berdiyeva Nilufar Axatovna</i>	
Zamonaviy smart texnologiyalar asosida talabalarning texnik fikrlash kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari.....	267
<i>Eshonqulova Madina Nosir qizi</i>	
Модель развития проектно-конструкторской компетентности студентов с использованием автоматизированных цифровых программ.....	272
<i>Камолова Махлиё Акбар кизи</i>	
Boshlang'ich sinf tabiiy fanlar darslarida sun'iy intellekt vositalari asosida tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi.....	277
<i>Savriddinova Mexrinov Ulug'bekovna, Ro'zimatov Jamshid Alisher o'g'li</i>	
Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning tug'ruqdan keyingi davr ayollarida onalikdan mamnunlik bilan bog'liqligi.....	282
<i>Kalandarova Madina Baxadirovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda lingvistik kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari	285
<i>Kamolova Mashhura Otabek qizi</i>	
Terminology and Lexical Problems in Modern Linguistics and AI.....	289
<i>Odilova Fotima</i>	
Adabiy ta'limda badiiy matnlar orqali o'qish kompetensiyalarini takomillashtirish metodikasi.....	294
<i>Abdujabborova Nilufar Rustamjon qizi</i>	
Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, uning bosqichlari va diagnostika metodikalari.....	298
<i>Boltayeva Go'zal Komilovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarning nutqiy muloqotini rivojlantirishda matn bilan ishlashning assotsiativ tafakkurga asoslangan metodikasi	302
<i>Hamroyeva Xolida Rizoqul qizi</i>	



Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligini baholashning kvalimetrik asoslari	307
Niyozova Shahlo Abdusaitovna	
Oilaviy holat, ma'lumot darajasi va pedagogik stajning ayollar emotsional barqarorligiga ta'sir etuvchi psixologik xususiyatlari	313
Pulatova Difuza Baxramovna	
"Kommunikativ kompetensiya"ning tarkibiy komponentlari.....	318
Saidova Sumbuloy Otabayevna	
Kasbiy kompetensiyani shakllantirishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish	321
Xamidova Zaynura Ramazonovna	
Wiki texnologiyasi asosida ingliz tili darslarini tashkil etish bosqichlari	324
Yunusova Dildora Hamrakulovna	
Nogiron farzandli turli yoshdagi onalarning psixologik farovonligi bilan depressiya, xavotir va stress o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik.....	328
Kasimova Xulkar Atabayevna	
Talaba-qizlarda sog'lom turmush tarzi qadriyatlarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	332
Esanova Gulchehra Boybo'ri qizi	

TAJRIBA-SINOV ISHLARINI TASHKIL ETISH, UNING BOSQICHLARI VA DIAGNOSTIKA METODIKALARI

Boltayeva Go'zal Komilovna

Urganch RANCH texnologiya universiteti katta o'qituvchisi

OrCId: 0009-0001-4767-2897

Annotatsiya: Mazkur maqolada tajriba-sinov ishlarini tashkil etishning ilmiy-metodik asoslari, uni rejalashtirish tamoyillari, bosqichlari hamda pedagogik tadqiqotlarda qo'llaniladigan diagnostika metodikalari tahlil qilinadi. Shuningdek, tajriba-sinov jarayonida olingan natijalarni baholash, monitoring qilish va ularning ishonchligini ta'minlash usullari yoritiladi. Tadqiqot natijalari pedagogik innovatsiyalar samaradorligini aniqlash va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: tajriba-sinov ishlari, pedagogik tadqiqot, diagnostika, monitoring, baholash mezonlari, tajriba bosqichlari, metodika, ta'lim sifati.

Abstract: This article examines the scientific and methodological foundations of organizing experimental research, including its planning principles, implementation stages, and diagnostic methods used in educational research. Particular attention is given to the assessment of experimental results, monitoring procedures, and approaches to ensuring the reliability and validity of research findings. The proposed framework contributes to evaluating the effectiveness of pedagogical innovations and improving the quality of education.

Key words: experimental research, pedagogical research, diagnostics, monitoring, evaluation criteria, research stages, methodology, quality of education.

Аннотация: В статье рассматриваются научно-методические основы организации опытно-экспериментальной работы, принципы ее планирования, основные этапы проведения и диагностические методики, применяемые в педагогических исследованиях. Особое внимание уделяется вопросам оценки результатов эксперимента, мониторинга и обеспечения достоверности полученных данных. Полученные результаты могут быть использованы для оценки эффективности педагогических инноваций и повышения качества образования.

Ключевые слова: опытно-экспериментальная работа, педагогическое исследование, диагностика, мониторинг, критерии оценки, этапы эксперимента, методика, качество образования.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish va ta'lim sifatini oshirish masalalari ilmiy tadqiqotlarning samarali tashkil etilishini taqozo etmoqda. Har qanday pedagogik g'oya, metod yoki texnologiyaning amaliy samaradorligini ilmiy asosda isbotlash tajriba-sinov ishlari orqali amalga oshiriladi. Shu bois tajriba-sinov ishlari pedagogik tadqiqotlarning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, nazariy qarashlarning amaliyotdagi natijadorligini aniqlash, ilgari surilgan ilmiy farazlarni tekshirish hamda ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish imkonini beradi.

Tajriba-sinov ishlarini ilmiy asosda tashkil etish ularning maqsad va vazifalarini aniq belgilash, tadqiqot obyekti va predmetini tanlash, tajriba dasturini ishlab chiqish hamda diagnostika metodikalarini to'g'ri qo'llashni talab etadi. Ayniqsa, tajriba-sinov jarayonining bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, ya'ni diagnostik (aniqlovchi), shakllantiruvchi va yakuniy (nazorat) bosqichlarning izchil tashkil etilishi tadqiqot natijalarining ishonchligi va obyektivligini ta'minlaydi. Mazkur bosqichlarda kuzatish, so'rovnomalar, test, suhbat, ekspert baholash, pedagogik monitoring va statistik tahlil kabi diagnostika metodlaridan foydalanish ilmiy xulosalarning aniqligi hamda asoslanganligini oshiradi.

Bugungi kunda ta'lim tizimini raqamlashtirish, kompetensiyaviy yondashuvni keng joriy etish va ta'lim sifatini xalqaro mezonlar asosida baholash sharoitida tajriba-sinov ishlarini zamonaviy diagnostika vositalari bilan uyg'unlashtirish alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu jihatdan mazkur maqolada tajriba-sinov ishlarini



tashkil etishning ilmiy-metodik asoslari, uning asosiy bosqichlari hamda pedagogik tadqiqotlarda qo'llaniladigan diagnostika metodikalarining mazmuni va ahamiyati tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogik tadqiqotlarda tajriba-sinov ishlari ilmiy gipotezaning amaliy asoslanganligini tekshirish, ishlab chiqilgan metodika yoki texnologiyaning samaradorligini aniqlash hamda ta'lim jarayonini takomillashtirishning muhim vositasi hisoblanadi. Har qanday pedagogik innovatsiya nazariy jihatdan asoslangan bo'lishi bilan bir qatorda, amaliyotda ham o'z samaradorligini namoyon etishi zarur. Shu sababli tajriba-sinov ishlari pedagogik tadqiqotlarning eng muhim bosqichlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Falsafiy manbalarda tajriba insonning tashqi olamni hissiy-empirik idrok etish jarayoni sifatida talqin qilinadi, eksperiment esa ma'lum bir hodisani yangi sharoitlarda sun'iy ravishda tashkil etish, unga faol ta'sir ko'rsatish va ilmiy maqsad asosida o'rganish usuli sifatida izohlanadi ^[1]. Ushbu yondashuv pedagogik tadqiqotlarda ham qo'llanilib, ta'lim jarayonida yaratilgan yangi metodik sharoitlarning natijadorligini baholash imkonini beradi.

S.I. Ojegovning izohli lug'atida "tajriba" va "eksperiment" tushunchalari o'zaro yaqin mazmunda izohlanadi. Olimning ta'kidlashicha, tajriba – bu ma'lum sharoitlarda yangi natijaga erishish, bilim va ko'nikmalarni amaliy sinash jarayoni bo'lsa, eksperiment esa yangi usulni amalda sinab ko'rish va uning natijalarini ilmiy jihatdan tekshirishni anglatadi ^[2]. Mazkur yondashuv pedagogik tajriba-sinov ishlarining mohiyatini to'liq ifodalaydi, chunki unda ta'lim jarayoniga yangilik kiritish va uning samaradorligini baholash asosiy maqsad hisoblanadi.

A.M. Novikov tajriba-sinov ishlarini ilmiy tadqiqotning muhim empirik metodi sifatida baholab, eksperimentning asosiy vazifasi pedagogik hodisalarni qat'iy nazorat qilinadigan va boshqariladigan sharoitlarda o'rganishdan iboratligini ta'kidlaydi ^[3]. Uning fikricha, tajriba-sinov ishlari davomida ta'lim jarayoniga maqsadli o'zgarishlar kiritiladi, innovatsion metodlar joriy qilinadi va ularning samaradorligi amaliy natijalar orqali tekshiriladi. Bunday yondashuv ilmiy gipotezaning haqiqiylikni ishonchli tarzda aniqlash imkonini beradi.

V.I. Zagvyazinskiy eksperimentni tadqiqotchi tomonidan maxsus yaratilgan pedagogik vaziyatda o'quvchi yoki talabalarning faoliyati, xulq-atvori hamda rivojlanish dinamikasini kuzatish va baholash imkonini beruvchi ilmiy metod sifatida tavsiflaydi ^[4]. Olimning fikricha, eksperiment faqat mavjud holatni qayd etish emas, balki o'quv jarayoniga faol aralashish orqali yangi pedagogik sharoitlarni yaratish va ularning ta'sirini aniqlash imkonini beradi.

Pedagogik tadqiqotlarda tajriba-sinov ishlarini samarali tashkil etish bir qator ilmiy tamoyillarga asoslanadi. Ulardan birinchisi pedagogik hodisalarni yaxlit o'rganish tamoyili bo'lib, bunda o'rganilayotgan jarayon ta'lim tizimining boshqa tarkibiy qismlari bilan uzviy bog'liqlikda tahlil qilinadi. Mazkur tamoyil shaxsiga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llashni, pedagogik hodisani ta'lim jarayonidagi o'rnini aniqlashni hamda uning rivojlanish dinamikasini o'rganishni talab etadi ^[5].

Ikkinchi muhim tamoyil obyektivlik tamoyili hisoblanadi. Ushbu tamoyilga ko'ra, tadqiqot davomida olingan har bir natija turli diagnostik metodlar yordamida qayta tekshirilishi, kuzatilgan barcha o'zgarishlar to'liq qayd etilishi va boshqa tadqiqotlar natijalari bilan taqqoslanishi lozim ^[4]. Shu bilan birga, pedagogik tadqiqotlarda tadqiqotchining shaxsiy tajribasi va ilmiy qarashlari ham ma'lum darajada natijalarga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Chunki ta'lim jarayoni murakkab, ko'p omilli va doimiy ravishda o'zgarib turadigan tizim hisoblanadi.

Tajriba-sinov ishlarining yana bir muhim tamoyili samaradorlik tamoyilidir. Mazkur tamoyil ishlab chiqilgan metodikaning an'anaviy usullarga nisbatan yuqori natija berishini nazarda tutadi. Ya'ni, bir xil vaqt, moddiy va tashkiliy resurslar sharoitida tajriba guruhi nazorat guruhiga nisbatan yuqoriroq natijalarni ko'rsatishi zarur ^[5]. Shu sababli tajriba-sinov ishlari yakunida olingan natijalarni statistik tahlil qilish va ularning ishonchligini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

V.G. Grechixin tajriba natijalarining ishonchligi ko'p jihatdan eksperiment o'tkazilgan sharoitlarga bog'liqligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, nazorat qilinmagan tashqi omillar pedagogik obyektning holati va faoliyatiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli eksperiment davomida barcha tashqi omillar imkon qadar nazorat qilinishi va bir xil sharoit yaratilishi lozim ^[6].

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda tajriba-sinov ishlari odatda uch asosiy bosqichda amalga oshiriladi: aniqlovchi (diagnostik), shakllantiruvchi va yakuniy nazorat bosqichi. Aniqlovchi bosqichda tadqiqot ishtirokchilarining boshlang'ich bilim darajasi, kompetensiyalari va mavjud muammolari aniqlanadi. Buning uchun test, anketa, kuzatish, suhbat va ekspert baholash metodlaridan foydalaniladi. Mazkur bosqich tajriba dasturini to'g'ri ishlab chiqish uchun zarur boshlang'ich ma'lumotlarni taqdim etadi.

Shakllantiruvchi bosqichda ishlab chiqilgan pedagogik metodika yoki innovatsion texnologiya amaliyotga joriy etiladi. Ushbu bosqichda muntazam monitoring olib borilib, o'quvchilarning rivojlanish dinamikasi kuzatiladi. Zarur hollarda diagnostika natijalari asosida metodikaga tegishli tuzatishlar kiritiladi. Bu esa tajriba-sinov ishlarining moslashuvchanligini ta'minlaydi hamda ta'lim jarayonini doimiy takomillashtirish imkonini yaratadi.



Yakuniy nazorat bosqichida esa tajriba va nazorat guruhlari natijalari qiyosiy tahlil qilinadi. Statistik metodlar yordamida olingan natijalarning ishonchlilik darajasi aniqlanadi, ilgari surilgan ilmiy gipotezaning tasdig'i yoki rad etilishi asoslanadi. Aynan ushbu bosqich tajriba-sinov ishlarining ilmiy ahamiyatini belgilaydi.

Tajriba-sinov ishlarida diagnostika metodikalari alohida o'rin tutadi. Diagnostika faqat natijani baholash vositasi emas, balki ta'lim jarayonini boshqarish, o'quvchilarning individual rivojlanishini kuzatish hamda pedagogik qarorlar qabul qilishning ilmiy asosidir. Bugungi kunda an'anaviy diagnostika vositalari bilan bir qatorda elektron test tizimlari, raqamli monitoring platformalari, ta'lim analitikasi (Learning Analytics), sun'iy intellekt asosidagi baholash vositalari ham keng qo'llanilmoqda. Bunday yondashuv diagnostika natijalarining aniqligi, tezkorligi va obyektivligini sezilarli darajada oshiradi.

Shunday qilib, tajriba-sinov ishlarini ilmiy asosda tashkil etish, uning bosqichlarini izchil amalga oshirish hamda zamonaviy diagnostika metodikalaridan kompleks foydalanish pedagogik tadqiqotlarning sifatini oshiradi. Ilmiy asoslangan tajriba-sinov natijalari innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish, ta'lim sifatini takomillashtirish va kompetensiyaviy yondashuvni samarali rivojlantirish uchun mustahkam metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida tajriba-sinov ishlarini tashkil etishning ilmiy-metodik modeli ishlab chiqilib, uning samaradorligi pedagogik diagnostika metodikalari asosida baholandi. Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda - aniqlovchi, shakllantiruvchi va yakuniy nazorat bosqichlarida tashkil etildi. Har bir bosqichda ishtirokchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalaridagi o'zgarishlarni aniqlash maqsadida kuzatish, test, anketa, suhbat, ekspert baholash hamda pedagogik monitoring usullaridan kompleks foydalanildi. Mazkur yondashuv tadqiqot natijalarining ishonchlilikini ta'minlash bilan bir qatorda, o'quvchilarning rivojlanish dinamikasini bosqichma-bosqich kuzatish imkonini berdi.

Aniqlovchi bosqich natijalari tadqiqot ishtirokchilarining dastlabki tayyorgarlik darajasi bir xil emasligini ko'rsatdi. Diagnostika natijalariga ko'ra, ishtirokchilarning muayyan qismida nazariy bilimlar yetarli bo'lsa-da, ularni amaliy faoliyatda qo'llash ko'nikmalari va mustaqil fikrlash kompetensiyalari talab darajasida shakllanmagani aniqlandi. Mazkur holat tajriba-sinov dasturida interfaol metodlar, muammoli ta'lim elementlari, loyiha faoliyati hamda reflektiv tahlil usullarini keng qo'llash zarurligini ko'rsatdi.

Shakllantiruvchi bosqichda ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar va innovatsion pedagogik texnologiyalar amaliyotga joriy etildi. Ushbu bosqich davomida muntazam diagnostik monitoring olib borildi va olingan natijalar asosida ta'lim jarayoniga zarur tuzatishlar kiritildi. Oraliq baholash natijalari eksperimental guruh ishtirokchilarida bilimlarni o'zlashtirish darajasi, mustaqil ishlash ko'nikmalari, tahliliy fikrlash va muammolarni hal qilish kompetensiyalarida ijobiy o'zgarishlar kuzatilganini ko'rsatdi. Ayniqsa, doimiy qayta aloqa (feedback) va individual yondashuv ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qildi.

Yakuniy nazorat bosqichida o'tkazilgan diagnostik tahlillar tajriba-sinov dasturining samaradorligini tasdiqladi. Eksperimental guruh natijalari nazorat guruhi ko'rsatkichlariga nisbatan yuqori bo'lib, bu qo'llanilgan metodika ta'lim sifati va o'quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatganini anglatadi. Natijalarni statistik jihatdan qayta ishlash ularning tasodifiy emasligini, balki qo'llanilgan metodik yondashuvlarning amaliy samarasi bilan bog'liqligini ko'rsatdi.

TAHLILVA NATIJALAR

Muhokama jarayonida tajriba-sinov ishlarini samarali tashkil etishda diagnostika metodikalarining o'rni alohida ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Diagnostika faqat yakuniy baholash vositasi emas, balki ta'lim jarayonini boshqarish, o'quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlash va o'qitish strategiyasini takomillashtirishning muhim mexanizmi sifatida namoyon bo'ldi. Kompleks diagnostik yondashuv pedagogik qarorlarni ilmiy asosda qabul qilish, tajriba-sinov natijalarini obyektiv baholash hamda ta'lim sifatini uzluksiz monitoring qilish imkonini beradi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari zamonaviy ta'lim sharoitida an'anaviy diagnostika vositalarini raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatdi. Elektron test tizimlari, onlayn monitoring platformalari, ta'lim analitikasi (Learning Analytics) va sun'iy intellekt asosidagi baholash vositalari tajriba-sinov ishlarining aniqligi, tezkorligi va shaffofligini sezilarli darajada oshiradi. Bunday yondashuv pedagogik tadqiqotlarni yanada takomillashtirish, ta'lim sifatini boshqarish hamda innovatsion metodikalarni amaliyotga joriy etishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, tajriba-sinov ishlari pedagogik tadqiqotlarning eng muhim bosqichi bo'lib, ilmiy g'oya va innovatsion metodikalarning amaliy samaradorligini aniqlashga xizmat qiladi. Tajriba-sinov jarayonini puxta rejalashtirish, uning aniqlovchi, shakllantiruvchi va nazorat bosqichlarini izchil tashkil etish hamda zamonaviy diagnostika metodikalaridan foydalanish tadqiqot natijalarining ishonchliligi va haqqoniyligini ta'minlaydi.

Shuningdek, kuzatish, test, anketa, suhbat, ekspert baholash, pedagogik monitoring va statistik tahlil metodlarini kompleks qo'llash ta'lim jarayonida yuz berayotgan o'zgarishlarni xolis baholash, o'quvchilarning rivojlanish dinamikasini aniqlash va ilmiy farazlarning tasdig'ini asoslash imkonini beradi. Bu esa tajriba-sinov natijalarini amaliyotga samarali tatbiq etish hamda ta'lim jarayonini takomillashtirish uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi.

Kelgusida tajriba-sinov ishlarini sun'iy intellekt, raqamli monitoring tizimlari, elektron diagnostika vositalari va ma'lumotlar tahlilining zamonaviy usullari bilan integratsiyalash pedagogik tadqiqotlarning aniqligi, tezkorligi va samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Natijada ta'lim tizimida qabul qilinayotgan ilmiy-metodik qarorlarning sifati yaxshilanadi, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlari kengayadi hamda ta'lim sifati va raqobatbardoshligi yuksaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Философский энциклопедический словарь. - Москва: Советская энциклопедия, 1989. - 815 с.
2. Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. - Москва: Азбуковник, 2010. - 944 с.
3. Новиков А.М. Методология научного исследования. - Москва: Либроком, 2010. - 280 с.
4. Загвязинский В.И. Методология и методы психолого-педагогического исследования. - Москва: Академия, 2012. - 208 с.
5. Краевский В.В. Методология педагогики: новый этап. - Москва: Академия, 2006. - 400 с.
6. Гречихин В.Г. Основы научных исследований. - Москва: Юрайт, 2018. - 411 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.